



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi  
\_\_\_\_\_ning  
20\_\_ - 20\_\_ - o'quv yiliga adabiyot fanidan  
7 - sinflar uchun III chorak

**DARS**  
**ISHLANMALARI**

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf adabiyot III chorak  
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
<b>III chorak</b>				
1.	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Navoiy qit‘alari tahlili	1		
2.	Alisher Navoiy fardlari tahlili	1		
3.	Mumtoz adabiyotdagi janrlarni qiyoslaymiz	1		
4.	Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodi. G‘azal janri haqida tushuncha. «Sog‘indim» g‘azali tahlili	1		
5.	«Mendin o‘rgandi» va «Dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi» g‘azallari tahlili	1		
6.	Uvaysiy chistonlari tahlili. Loyiha	1		
7.	Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon” romanidan boblar: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
8.	«Chayonning namoyishi» bobi tahlili	1		
9.	«Ikki xil sadoqat» va «Barimta» boblari tahlili	1		
10.	«Xayr endi, Ra‘no» va «Qo‘rqunch bir jasorat» boblari tahlili	1		
11.	Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon» romanidan boblar: «Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Maktub yozish. Epik tur va janrlar.	1		
12.	<b>Nazorat ishi-5</b>	1		
13.	Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” romanidan bob: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
14.	Pirimqul Qodirov. «Yulduzli tunlar» romanidan bob: Asar matni bilan ishlash	1		
15.	Pirimqul Qodirov. «Yulduzli tunlar» romanidan bob: «Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash.	1		
16.	Pirimqul Qodirov. «Yulduzli tunlar» romanidan bob: Loyiha	1		
17.	Pirimqul Qodirov. «Yulduzli tunlar» romanidan bob: Konflikt	1		
18.	Fanlararo aloqa: Adabiyot va tarix	1		
19.	<b>Nazorat ishi-6</b>	1		
20.	Xatolar ustida ishlash	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Navoiy qit'alari tahlili**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, va ulardan foydalana olish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo'limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Alisher Navoiy (1441–1501) o'z davrining iste'dodli shoiri, davlat arbobi, olim, ko'plab asarlari bilan o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirdir. U to'rt yoshidan adabiyotga, she'riyatga va ilm olishga qiziqdi, o'tkir zehni va tug'ma qobiliyati bilan zamonasining obro'li ijodkorlari, san'atkor va olimlari e'tiborini tortdi. O'n – o'n ikki yoshlaridan she'rlar yoza boshladi. Tarixchilarning yozishicha, mashhur shoir Lutfiy Alisherning bolalikda yozgan:

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh, Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon

bo'lg'och quyosh...

misralari bilan boshlanadigan g'azalini tinglab, "Agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming she'rimni shu bir g'azalga almashar edim", – degan ekan. Navoiy iste'dodi keyinchalik tinimsiz mehnat va izlanishlar bilan uyg'unlashib, jahon adabiyoti durdonalari darajasidagi buyuk asarlarning dunyoga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Bu mavzuda biz:

– Alisher Navoiy qit'alari va fardlaridagi g'oyalarni tahlil qilamiz;– fard va qit'a haqidagi tushunchalarga ega bo'lamiz;

– mumtoz adabiyotdagi kichik janrlarni solishtiramiz. O'z davrining taniqli shoirlaridan biri, Navoiyning ustozlari Lutfiy nima sababdan yosh Alisherning bir g'azaliga bunchalik katta baho berdi deb o'yaysiz? Bu g'azalning kuchi nimada bo'lishi mumkin?

Siz ham biror-bir yaxshi ishingiz bilan ustozingiz yoki ota-onangizni hayratga solganmisiz?

Qit'a(arabcha "bo'lak, qism, parcha" so'zidan) mumtoz adabiyotda qo'llangan janrlardan biri bo'lib, unda muallifning turli mazmundagi fikr-mulohazalari, qarashlari ifodalanadi.

Qit'a ikki bayt (to'rt qator) va undan ortiq bo'lishi mumkin. Unda har ikkinchi misra (qator) o'zaro qofiyalanadi. Quyidagi qit'ani o'qing va qofi yalanishiga e'tibor bering.

Qit'a mazmunini hozirgi o'zbek tilida ifodalashga harakat qiling.

Yuqori o'lturur kim tilasa,  
Kishilikdan ani **yiroq bilgil.**  
O'lturur safda yuqorilikdin  
O'lturur safda **yaxshiroq bilgil.**

} **yiroq bilgil –  
yaxshiroq bilgil: a – a**

*Nega Navoiy yuqorida o'tirishdan ko'ra safda (qatorda) o'tirishni afzal bilmoqda?*

*Juft-juft bo'lib ishlang. Navoiy qit'alaridan namunalarni o'qing va tahlil qiling. Jadvalni daftaringizda to'ldiring.*

Qit'a	Asosiy g'oyasi	Asosiy g'oyani ifodalaydigan kalit so'zlar
1		
2		
3		
4		
5		
6		
7		
8		
9		

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Fard(arabcha "yakka, yolg'iz" so'zidan) mumtoz adabiyotda qo'llangan janrlardan biri bo'lib, unda muallifning hayotiy kuzatishlariga asoslangan xulosalari, g'oyalari ilgari suriladi. Fard bir bayt (ikki qator)dan tashkil topadi.

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Alisher Navoiy fardlari tahlili**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy asarlarni tushunish, orasta kiyinish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

aniq reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, chizmalarni o'qiy olish.

**Darsning metodi:** og'zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

**Nazorat:** o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Missis Ueldon engashib xaritani ko'ra boshladi. U quruq yerni ko'rsatuvchi jigarrang dog'larga juda ko'p tikildi. Bu dog'lar Tinch okeanni Atlantika okeanidan ajratib turuvchi kattakon Janubiy Amerika qit'asi edi. Janubiy Amerika qit'asi bilan birga bepoyon okeanni ham sig'dirgan xaritaga qaraganda quruq yer juda yaqin ko'rinar va unga yetib olish juda osonday edi. Xaritaning masshtabiga odatlanmagan har bir kimsaga doim ana shunday bo'lib ko'rinadi. Qog'ozdagi yerni ko'rgan missis Ueldon, yer rostdan ham shunday yaqin

bo'lsa kerak, deb o'yladi. Holbuki, agar "Piligrim" to'g'ri masshtabi bilan o'sha xaritaga tushirilganida edi, mikroskop bilan ko'rinadigan eng mayda infuzoriyadan ham kichikroq bo'lar edi. Ana shunda bu matematik nuqta bepoyon okeanda ko'zdan yo'qolgan "Piligrim" singari o'sha qog'ozda ham ko'zga ko'rinmasdan yo'qolib ketgan bo'lardi.

Dik esa missis Ueldondan ko'ra boshqacha fikrda edi. U yerning kema turgan joydan necha yuz millab uzoqda ekanini bilardi. Ammo, shunga qaramasdan, uning shashti sira bo'shashmadi. Odamlarni qutqarish mas'uliyati Dikni ulg'aytirib qo'ygan edi. Harakat qiladigan payt keldi. Shimoli-g'arbdan esgan shamol soat sayin kuchayar va bundan foydalanish kerak edi. Juda balandlikdan uchayotgan parsimon oq bulutlar shamolning tez orada to'xtamasligini bildirar edi. Dik Send Tom bilan uning sheriklarini o'z oldiga chaqirdi. – Do'stlar, – deb so'z boshladi u, – "Piligrim"da sizdan bo'lak matroslar yo'q. Siz yordam bermasangiz, bir o'zim hech nima qilolmayman. Albatta, sizlar dengizchi emassizlar, ammo qo'llaringiz kuchli. Siz kuchingizni ayamasangiz, "Piligrim"ni bemalol boshqara olamiz. Hayot-mamotimiz ana shunga bog'liq.

– Kapitan Dik, – deb javob qaytardi Tom, – biz hammamiz, o'zim ham jon deb sizning matrosdaringiz bo'lamiz. Jon deb sizga yordamlashamiz. Besh kishining qo'lidan nimaiki ish kelsa, sizning rahbarligingiz ostida ishlayveramiz!

– Yashang, Tom ota! – deb xitob qildi missis Ueldon.

– Biroq juda ehtiyot bo'lishimiz kerak, – dedi Dik Send. – Men tavakkaliga ish qilmayman, yelkanlarning ham hammasini ko'tarmayman. Biroz kechiksak kechikarmiz, lekin bexavotir bo'lamiz. Sharoit shuni talab qilayotir. Hozir men har biringizga o'z vazi fangizni tu shuntirib va ko'rsatib beraman. Mening o'zim kuchim boricha shturval oldida turaman. Goho bir-ikki soat uxlab olaman. Men ozgina bo'lsa ham uxlagan vaqtimda bittalaring mening o'rnimda turishlaring lozim. Bunga sizni o'rgatsam deyman, Tom, nima deysiz?

Kemani kompasga qarab boshqarib borish unchalik qiyin ish emas. Agar xohishingiz bo'lsa, kemani kerakli tomonga haydashni tez o'rganib olasiz.



#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

Sizningcha, Dik kemani boshqarish mas'uliyatini o'z bo'yniga olib to'g'ri ish qildimi?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_  
(imzo) (sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

**Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi**

**42 listdan iborat adabiyot fanidan 7-sinf III chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**

